

SHO'R VA QURG'OQCHILIKGA CHIDAMLI, CHARVO MOLLARI UCHUN OZIQABOP O'SIMLIKLARNING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Diyana Janibek Qizi

*TDAU, O'simliklar himoyasi, agrokimyo va tuproqshunoslik fakulteti, Agrokimyo va
tuproqshunoslik kafedraasi o'qituvchi*

Annotatsiya: *Hozirgi vaqtda mamlakatimizda sug'oriladigan erlarning qariyb 9,6 foizining meliorativ holati yomon bo'lib, bu avvalo, tuproqning sho'rlanish darajasi yuqoriligi va er osti suvlarining ko'tarilishi bilan bog'liqdir. SHunday ekan, sug'orilib ekin ekiladigan er maydonlarini yanada kengaytirish, ularning meliorativ holatini yaxshilash orqali unumdorligini orttirish bugungi qishloq xo'jaligining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi (Kuziev, 2000). Bugungi kunga kelib respublika umumiy er maydonining 46,3 % ini turli darajada sho'rlangan erlar tashkil etadi (O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplamlari Atlasi, 2010).*

Kalit so'zlar: *tuproqning sho'rlanishi, meliorativ holati, qishloq xo'jaligi, amarant, yem-xashak, sho'rtoblashgan, tuproqlarning strukturaliligi.*

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СОЛЕВЫХ ЗАСУХОСТОЙКИХ КОРМОВЫХ РАСТЕНИЙ ДЛЯ ЖИВОТНОВОДСТВА

Аннотация: *В настоящее время около 9,6 процента орошаемых земель в нашей стране находятся в плохом мелиоративном состоянии, что связано, прежде всего, с высоким уровнем засоления почв и подъемом грунтовых вод. Поэтому расширение площадей орошаемых земель и повышение их продуктивности за счет мелиорации является одной из важнейших задач современного сельского хозяйства (Кузиев, 2000). На сегодняшний день 46,3% всей земельной площади республики составляют земли с разной степенью засоления (Атлас почвенных покровов Республики Узбекистан, 2010).*

Ключевые слова: *засоление почв, мелиорация, земледелие, amarant, корма, засоление, структура почв.*

ECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SALT DROUGHT-RESISTANT FORAGE PLANTS FOR ANIMAL HUSBANDRY

Abstract: *Currently, about 9.6 percent of irrigated lands in our country are in poor reclamation condition, which is primarily due to high levels of soil salinization and rising groundwater. Therefore, expanding the area of irrigated lands and increasing their productivity through land reclamation is one of the most important tasks of modern agriculture (Kuziev, 2000). Today, 46.3% of the total land area of the republic consists of lands with varying degrees of salinity (Atlas of soil covers of the Republic of Uzbekistan, 2010).*

Key words: *soil salinization, reclamation, agriculture, amarant, feed, salinization, soil structure.*

Hozirgi kunda dunyoning 75 mamlakatning choʻl mintaqasida iqlim sharoitlarni keskin oʻzgarishi oqibatida qumli choʻllarni degradatsiyaga uchrashi hamda tuproqlarni shoʻrlanish darajasi ortib, minglab gektar maydonlarning ekologik holati yomonlashiga olib kelmoqda. Birgina Afrika va Janubiy Osiyodagi mamlakatlarda 183 mln gektar maydon turli darajada shoʻrlangan. Bundan tashqari oʻsimlik qoplaminig muhim ozuqabop turlari kamayib, paymon boʻlmoqda, ularning hosildorligi hamda biologik xilma-xilligi pasaymoqda. Dunyo choʻl mintaqasidagi qishloq xoʻjaligi amaliyotida galofitlardan keng foydalanishda, degradatsiyaga uchragan maydonlarini qayta tiklash hamda istiqbolli, yuqori oqsilli galofitlarni tanlab yetishtirishdan iborat. Iqlimning global oʻzgarishida galofitlarning tabiiy florasidan foydalanish, ularni genplazma asosida tanlash, kolleksiyasini shakllantirish, kolleksion namunalarini baholash hamda galofit buta, yarim buta va oʻtchil ekotip, mahsuldorlik va ekologik chidamli boʻlgan turlarni tanlash, ularni yetishtirishning yuqori samarali texnologiyasini qoʻllash orqali oʻsimliklarning ozuqabopligiga erishish mumkin. Respublikamizda keyingi yillarda shoʻrlangan tuproqlarning holatini yaxshilash va shu mintaqaga mos, chorvachilik uchun yuqori ozuqabop fitomassa galofit turlarini tanlash hamda ularni yetishtirish agrotexnologiyalarini yanada takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlar dolzarb boʻlib hisoblanadi.

Shoʻr va qurgʻoqchilikga chidamli, charvo mollari uchun oziqabop oʻsimliklarning biri Amarant hisoblanadi. Eng arzon yem-xashak manbasi boʻlib, barra hoida ham silos hoida ham oʻsimlikning koʻk massasi yuqorioqsilli qimmatli yem hisoblanadi. Amarantdan barra hoida ham silos hoida ham chorvani oziqlantirishda foydalanish, oʻt uni, briketi, granulasi tayyorlash mumkin. Vegetativ massasida oʻzlashtiriladigan protein miqdoriga koʻra (150-220 g/kg) bu ekin koʻplab siloslanadigan ekinlardan yuqori turadi. Protein va almashinmaydigan aminokislotalar boʻyicha balanslashtirilgan kombinatsiyalangan silos makkajoʻxori yoki boshqa donli ekinlar hamda dukkaklilar bilan aralashgan holda tayyorlanadi. Koʻk massa hosili anʻanaviy makkajoʻxori silosiga nisbatan 20-30 % koʻp boʻlib, oʻrtacha 500-800 s/Ga ni tashkil qiladi. Amarantning 100 kg koʻk massasida 15-18 yem birligi boʻlib, 1 yem birligiga 180-292 g hazm boʻluvchi protein toʻgʻri keladi, bu yalpi hosilda 1,5-2,0 t/Ga ni tashkil qiladi. Amarant oqsili almashinmaydigan aminokislotalar miqdoriga koʻra balanslashgan boʻlib, xususan, lizin amarantda bugʻdoydagiga nisbatan 3-3,5 barobar koʻp. Koʻk massasini barcha turdagi chorvalar suyib isteʼmol qiladi. Oqsil mahsuldorligi va yem birligi unumi boʻyicha amarant makkajoʻxori, suli, suli-raps aralashmasi va boshqa shu kabi koʻplab ekinlardan 1,5-2,2 marta ustun turadi. Oʻzbekiston florasida yangi yem-xashak, ozuqabop, manzarali oʻsimliklar introduksiyasi tufayli boyitilib, oʻsimlik turlarining umumiy soni 4500 tadan oshib ketdi. Mazkur turlardan toʻyimlilik va yeyilish (isteʼmol qilinishi) xususiyatiga ega boʻlgan va chorva mollar tomonidan yeyilishi uchun yaroqli hisoblangan turlarni yetishtirib, yem-xashak muammosini bartaraf etish va ozuqabop ekinlar hosildorligini kamida 6-7 tonna ozuqa birligiga yetkazish taʼminlanishi kerak (Umirzoqov, 2017).

Jahonda 2000-2500 turdan ortiq galofit oʻsimliklar mavjud boʻlib, Markaziy Osiyo tabiiy florasida ularning 700 turdan ortigʻi qayd qilingan (Akjigitova, 1982). Dunyo florasida galofitlarning 120 oila, 550 turkum, 2000 dan ortiq turi mavjud boʻlib, eng koʻp turdagi galofitlar asosan 10 ta oilaga – Chenopodiaceae (370 tur), Poaceae (137 tur), Asteraceae (69

tur), Plumbaginaceae (57 tur), Aizoaceae (53 tur), Cyperaceae (49 tur), Papilionaceae (46 tur), Tamariceae (46 tur), Areaceae (28 tur), Zygophylluceae (27 tur) taalluqli (Shamsutdinov, 2006). Cho'l mintaqasi o'simlik qoplami hayotiy formalar va turlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Masalan, Mavlyanovning (1973) olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, Qarnabcho'l florasida 238 tur gulli o'simliklar qayd etilgan. Bu o'simlik turlari 138 turkumga mansub bo'lib, shulardan 216 turi o'tchil o'simliklar (90,8%), 12 turi yarim butalar (5,0%) va 10 turi (4,2%) buta o'simliklardir.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, sho'rlangan tuproqlarning holatini yaxshilash borasida ularning botanik tarkibini boyitish, charvo molar uchun yem-xashak yani ozuqabop turlardan foydalanish, boshqa ekologik muhitlardan farq qiluvchi fitomeliorant o'simlik turlarini tanlash va tegishli samara beruvchi tadbirlar tizimini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, barcha mamlakatlarni sho'rlanish muammosini har tomonlama o'rganish va unga qarshi kurashning uyg'unlashgan usullarini ishlab chiqish, dunyodagi iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga yordam beradi. Buning uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xususan, konservativ qishloq xo'jaligining zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, oziqabop o'simliklarni yetishtirish, sho'rlangan tuproqlarni tiklash, tuproqning unumdorligini oshirish maqsadida zamonaviy sug'orish tizimlaridan foydalanish dasturlarini amalga oshirish zarurligi aniq, bu esa qishloq xo'jaligi samaradorligini oshiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Кошеков Р. “Қорақалпоғистоннинг шимолий минтақасида ўтказилган мелиоратив ишларнинг самарадорлиги”. // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали-Тошкент, 2012 № 8 32-34 б

2. Х.А.Идрисов, С.М.Назарова «Ўсимликшунослик» Ўқув қўлланма “Дурдона” нашриёти Бухоро – 2023-й 96-99-б

3. Национальная академия наук. Амарант: современные перспективы древней культуры . Вашингтон, округ Колумбия: Национальная академия наук; 1984 г.

4. О'.Ahmedov va boshqalar. “Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya”. Tafakkur bostoni nashriyoti T. – 2017 y 45 bet.

5. N.X. To'xtaboyev, N.N. ismoilova, I.R. Asqarov Biomo'jiza biologik faol oziq-ovqat qo'shimjasining samaradorligi. Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar 1-son. 2022 y.

6. Н.Хошимжонов, Н.Тўхтабоев, М.Мўминов. Амарантдан шифобахш мой ажратиб олишни жорий қилиш истиқболлари. Farg'ona vodiysi bio xilma-xilligi dolzarb muammolar va ularning yechimi. Respublika ilmiy anjuman materiallar to'plami. Andijon 2015 y.